

2014 yil bo'yicha

Asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar

	O'lchov birligi	2014 yil yanvar-dekabr	2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so'm	3632,1	108,4
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	1333,3	110,3
Iste'mol tovarlari	mlrd. so'm	529,2	112,
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	mlrd. so'm	1097,3	106,1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	mlrd. so'm	3840,3	143,4
Qurilish ishlari	mlrd. so'm	917,3	109,7
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh dollari	325,4	139,2
Eksport	mln. AQSh dollari	109,2	95,3
Import	mln. AQSh dollari	216,2	181,3
Yuk aylanmasi	mln. tn-km	794,3	104,0
Yo'lovchi aylanmasi	mln. yo'lovchi-km	2308,2	108,7
Jami xizmatlar	mlrd. so'm	2627,8	121,4
Chakana tovar aylanmasi	mlrd. so'm	1913,4	114,1
Aholiga pulli xizmat ko'rsatish	mlrd. so'm	880,9	112,5

Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish

2014 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) nominal qiymati 3632,1 mlrd. so'mda baholandi. Uning real hajmi o'sish sur'atlari 2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan 108,4 foizni tashkil qildi.


YaHM ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

	Yakunga nisbatan foiz hisobida		2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
	2013 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr	
Jami	100,0	100,0	108,4
shu jumladan:			
sanoat	12,7	12,7	107,1
qishloq xo'jaligi	20,5	20,0	106,1
qurilish	12,2	12,8	109,7
transport va aloqa	11,9	11,3	106,8
savdo va umumiy ovqatlanish	9,0	9,0	111,8
boshqalar	29,0	29,5	109,5
mahsulotlar va eksport-import operatsiyalariga sof soliqlar	4,7	4,7	108,4


YaHM ishlab chiqarishning tarmoqlar bo'yicha tarkibi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida

2013 yil yanvar-dekabr



2014 yil yanvar-dekabr



- sanoat
- qishloq xo'jaligi
- qurilish
- transport va aloqa
- savdo va umumiy ovqatlanish
- boshqalar
- mahsulotlar va eksport-import operatsiyalariga sof soliqlar

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 64,5 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2013 yil yanvar-dekabrda 64,0 foizni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik (biznes)

IV -CHORAK

2015 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining soni (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) 10609 tani tashkil qildi.

2014 yil yanvar-dekabrda yalpi hududiy mahsulot hajmida kichik biznesning ulushi 64,5 foiz (2013 yil yanvar-dekabrda 64,0 foiz)ni tashkil qildi.

Iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 74,5 foizi (462,7 ming kishi) kichik biznes sektoriga to'g'ri keldi. Band bo'lganlarning 51,3 foizi (318,8 ming kishi) xususiy sektor hamda 16,0 foizi (99,2 ming kishi) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes sub'ektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 120,5 foizga o'sdi va 461,1 mlrd. so'mni (respublika sanoat ishlab chiqarishining 34,6 foizi), qishloq xo'jalik mahsuloti 108,0 foizga o'sib, 1097,3 mlrd. so'mni (qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 97,6 foizi) tashkil qildi.

Respublika iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 11,2 foizini kichik biznes sub'ektlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar tashkil qildi, qurilish ishlarining 77,4 foizi kichik biznes korxonalariga hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes sub'ektlarining avtomobil transportida yuk aylanmasi 107,8 foizga o'sdi va respublika avtomobil transporti yuk aylanmasining 81,6 foizini, yo'lovchi aylanmasi esa 107,8 foizga o'sib, umumiy yo'lovchi aylanmasining 93,4 foizini tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi umumiy hajmining 42,8 foizi yoki 819,5 mlrd. so'mi (o'sish 106,1 foizni tashkil qildi) va aholiga pulli xizmat ko'rsatish umumiy hajmining 39,1 foizi yoki 344,6 mlrd. so'mi (118,5 foizga o'sgan) kichik tadbirkorlikda shakllandi.

Kichik biznes sub'ektlari tashqi savdo aylanmasi respublika tashqi savdo aylanmasi hajmining 25,8 foizini tashkil qildi. Joriy yilda 27,9 mln. AQSh dollari yoki eksport umumiy hajmidan 25,6 foizi miqdorida mahsulot eksporti va 56,1 mln. AQSh dollari yoki umumiy importning 25,9 foizi miqdorida mahsulot importi kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik ulushining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



Xususiy tadbirkorlik kichik biznesning asosiy qismini tashkil qiladi. 2014 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik mahsuloti (ish, xizmat) umumiy hajmida xususiy tadbirkorlik (fuqarolar mulki) mahsulotining ulushi quyidagicha ifodalanadi:

Sanoat	284,7	21,3
Qurilish	362,9	39,6
Chakana savdo	400,0	20,9
Pulli xizmat	6,7	0,8
Yuk tashish, mln. tn	0,5	2,2
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	3,8	1,8


Tashqi iqtisodiy aloqalar

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2014 yil yanvar-dekabrda 325,4 mln. AQSh dollari, shu jumladan eksport 109,2 mln. AQSh dollari, import 216,2 mln. AQSh dollari tashkil qildi.

Respublika tashqi savdo aylanmasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

Tashqi savdo aylanmasi	233,8	325,4	139,2
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	79,4	90,4	113,9
boshqa xorij mamlakatlari	154,4	235,0	152,2
Eksport	114,5	109,2	95,3
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	20,7	27,2	131,3
boshqa xorij mamlakatlari	93,8	82,0	87,4
Import	119,2	216,2	181,3
shu jumladan:			
MDH mamlakatlari	58,6	63,2	107,8
boshqa xorij mamlakatlari	60,6	153,0	2,5m

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorij mamlakatlarining ulushi quyidagicha ifodalanadi:




Eksport va import hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi

Eksport tarkibi	100,0	100,0	95,3
paxta tolasi	69,4	62,1	85,3
oziq-ovqat mahsulotlari	5,9	7,6	123,2
kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,2	8,8	161,9
energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
qora va rangli metallar	-	-	70,2
mashina va uskunalar	-	-	193,2
xizmatlar	11,9	13,8	110,3
boshqalar	7,6	7,7	96,4
Import tarkibi	100,0	100,0	181,3
oziq-ovqat mahsulotlari	27,1	6,0	40,1
kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	1,0	1,9	3,6m
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,1	0,2	6,6m
qora va rangli metallar	2,3	0,4	34,7
mashina va uskunalar	36,8	45,4	2,2m
xizmatlar	19,4	34,5	3,2m
boshqalar	13,3	11,6	156,5

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida





Respublika tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi:

Rossiya	14,5	160,4
Turkiya	1,1	157,6
Qozog'iston	2,4	66,6
Xitoy	36,7	187,2
Ukraina	2,0	73,8
Germaniya	5,7	2,4m
J.Koreya	11,7	13,4m
Eron	0,4	2,5m
Turkmaniston	0,1	95,0
Qirg'iziston	2,1	4,3m
BAA	1,9	2,7m
Polsha	0,3	3,5m
Litva	1,8	60,4m



Hisobot davrida Qoraqalpog'iston Respublikasi jahonning 77 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirdi va 6 mamlakat bilan ijobiy saldogga ega bo'ldi.

2014 yil yanvar-dekabrda MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

Eksport



Import



- paxta tolasi
- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar
- energiya manbalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- mashina va uskunalar
- xizmatlar
- boshqalar

Sanoat

2014 yil yanvar-dekabrda sanoat mahsuloti hajmi 1333,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 529,2 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. Jumladan, 344,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 78,7 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari va 105,8 mlrd. so'mlik vino-arog mahsulotlari (2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan mos ravishda 111,6 foiz, 110,8 foiz va 114,4 foiz) ishlab chiqarildi.


2014 yil yanvar-dekabrda sanoat tarmoqlari bo'yicha mahsulot hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi quyidagicha ifodalanadi:

	Mrld. so'm	2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan foiz hisobida
Mahsulot ishlab chiqarish	1333,3	110,3
shu jumladan:		
yoqilg'i	82,1	100,5
qora metallurgiya	11,3	112,1
energetika	269,6	109,7
kimyo va neft-kimyo	81,3	100,4
mashinasozlik va metallni qayta ishlash	5,6	80,6
o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz	6,5	65,6
qurilish materiallari	162,1	143,2
engil sanoat	271,0	102,9
oziq-ovqat sanoati	419,9	113,2
sanoatning boshqa tarmoqlari	23,9	91,5
Iste'mol tovarlari	529,2	112,0
shu jumladan:		
oziq-ovqat mahsulotlari	344,7	111,6
nooziq-ovqat mahsulotlari	78,7	110,8
arog-vino mahsulotlari va pivo	105,8	114,4


Tarmoqlar bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish tarkibi quyida keltirilgan:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida

2013 yil
yanvar-dekabr



2014 yil
yanvar-dekabr



- Elektroenergetika
- Yoqilg'i sanoati
- Qora metallurgiya
- Kimyo va neft-kimyo
- Mashinasozlik va metalni qayta ishlash
- O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza - qog'oz
- Qurilish materiallari
- Yengil sanoat
- Oziq-ovqat sanoati
- Boshqa sohalar

Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)

	2014 yil yanvar-dekabr	2013 yil yanvar-dekabr nisbatan foiz hisobida
Yoqilg'i -energetika sanoati		
Elektroenergiya, mln.kvt.soat	3429,4	107,6
Issiqlik energiyasi, mln.gkal	43,3	97,5
Kimyo va neft-kimyo sanoati		
Dinatriy karbonati, ming tn.	95,9	99,9
Yengil sanoat		
Paxta tolasi, tn.	69417	105,1
Chigit, tn.	103893	125,8
Paxta linti, tn.	6051	108,0
Oziq-ovqat sanoati		
Non va non mahsulotlari, tn.	1391,3	91,5
O'simlik yog'i, tn.	11787	80,1
Makaron mahsulotlari, tn.	2776	85,9
Aroq va aroq-likyor mahsulotlari, ming litr	3887	106,1
Un-yorma va omixta yem sanoati		
Un, tn.	50814	81,9
Omixta yem, tn.	27200	79,2

Qishloq xo'jaligi


2014 yilning yanvar-dekabrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 1097,3 mlrd. so'mni va 2013 yilning shu davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 533,2 mlrd. so'mni (2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan 104,1 foiz), chorvachilik mahsulotlari 564,1 mlrd. so'mni (108,1 foiz) tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 48,6 foizni, chorvachilik mahsulotlari 51,4 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



Dehqonchilik. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda joriy yil hosili uchun asosiy maydonlarda qishloq xo'jalik ekinlarining umumiy maydoni 229762 gektarni tashkil qildi. Jumladan, 2015 yilning 1 yanvar holatiga don va dukkakli don ekinlari bilan band bo'lgan ekin maydoni 82994 gektar, paxta ekin maydoni 94700 gektar, kartoshka 4338 gektar, sabzavot ekinlari 10543 gektarni, poliz 9172 gektarni, ozuqa ekinlari 22585 gektarni, moyli ekinlar 5242 gektarni va boshqa turdagi ekinlar 188 gektarni tashkil qildi.

Hosil yig'imi. 2015 yil 1 yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 161,9 ming tonna boshqoqli don ekinlari, shundan 161,7 ming tonna bug'doy ishlab chiqarildi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 44,7 ming tonna kartoshka qazib olindi (2013 yilga nisbatan 113,3 foizga ko'p), 227,5 ming tonna sabzavot (112,9 foizga ko'p) yig'ib olindi, 106,0 ming tonna poliz ekinlari (107,3 foizga ko'p), 36,8 ming tonna meva va rezavorlar (111,3 foizga ko'p) va 5,3 ming tonna uzum (118,7 foizga ko'p) yetishtirildi.


Chorvachilik. 2015 yilning 1 yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,2 foizga (jami 871,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,3 foizga (269,3 ming bosh), qo'y va echkilar 100,5 foizga (876,9 ming bosh), parrandalar 102,6 foizga (2849,8 ming bosh) ko'paydi.

2014 yilning yanvar-dekabrda barcha toifadagi xo'jaliklarda 82,7 ming tonna tirik vaznda go'sht (o'tgan yilga nisbatan 107,2 foizga ko'p), 296,5 ming tonna sut (109,0 foizga ko'p), 185,9 mln. dona tuxum (113,3 foizga ko'p), 1,1 ming tonna jun (101,9 foizga ko'p) yetishtirildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,0 foizni, sut ishlab chiqarishda 98,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 91,2 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida



Fermer xo'jaliklari. 2015 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklarida 33,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 12,0 ming bosh sigir, 32,4 ming bosh qo'y va echkilar, 154,7 ming bosh parrandalar mavjud bo'lib, 2013 yilning yanvar-dekabriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 95,4 foizni, qo'y va echkilar 92,0 foizni, parrandalar 81,0 foizni tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklarida asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish quyidagicha ifodalanadi:

shu jumladan bug'doy	111,7	69,0	111,1	68,6	99,5
Kartoshka	10,4	26,4	11,6	26,0	111,8
Sabzavot	79,5	39,5	85,8	37,7	107,8
Poliz	48,6	49,2	52,4	49,4	107,6
Meva va rezavorlar	13,1	39,6	11,4	31,0	87,1
Uzum	0,5	11,1	0,5	9,4	106,1
Go'sht, tirik vaznda	1,8	2,3	1,8	2,2	103,1
Sut	12,5	4,6	13,5	4,6	107,7
Tuxum, mln. dona	12,8	7,8	11,1	6,0	86,6
Jun, tonna	65,0	6,0	65,0	6,0	100,0
Pilla, tonna	714,4	87,4	733,9	82,4	102,7

Investitsiyalar va qurilish


2014 yil yanvar-dekabrida respublikaning asosiy kapitalini ko'paytirishga 3840,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi, o'sish sur'ati 143,4 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

Jami	3840,3	2,5	35,8	49,3	3,7	5,6	0,3	2,8
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:								
davlat	442,9	21,4	23,9	2,2	1,6	48,2	2,7	-
nodavlat	3397,4	-	37,3	55,4	4,0	0,1	-	3,2

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni o'zlashtirish quyidagi ma'lumotlarda ifodalanadi:

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida



Iqtisodiyot tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ko'rinishda:

	3840,3	100,0	100,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami			
Ishlab chiqarish tarmoqlari	3134,9	81,6	77,4
Sanoat	2663,7	69,4	64,7
shu jumladan:			
-yoqilg'i-energetika	2567,5	66,86	56,5
-metallurgiya	0,1	0,01	0,03
-kime va neft-kimyxo sanoati	67,1	1,7	3,1
-mashinasozlik	1,4	0,04	0,03
-engil sanoat	7,3	0,19	3,1
-oziq-ovqat sanoati	10,0	0,3	0,2
-qurilish materiallari	8,6	0,2	1,6
-boshqalar	1,7	0,1	0,14
Qishloq xo'jaligi	72,5	1,9	2,0
Qurilish	22,7	0,6	0,6
Transport va aloqa	227,7	5,9	6,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	44,6	1,1	1,6
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	103,7	2,7	2,2
Noishlab chiqarish tarmoqlari	705,4	18,4	22,6
Uy-joy qurilish	430,5	11,2	14,6
Kommunal xo'jalik	118,4	3,1	2,5
Sog'liqni saqlash	39,9	1,0	1,6
Ta'lim	43,5	1,2	1,7
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	73,1	1,9	2,2

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmidan 3134,9 mlrd. so'mi yoki 81,6 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga, noishlab chiqarish tarmoqlariga ,705,4 mlrd. so'm yoki 18,4 foizi yo'naltirildi.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 430,5 mlrd. so'mi yoki 61,0 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2014 yil yanvar-dekabrida umumiy maydoni 754,2 ming kv.m. bo'lgan 4914 ta xonadon (2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan 99,6 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 214,9 ming kv.m. (96,7 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va chet el mablag'lari hisobiga umumta'lim maktablarini, musiqa va san'at maktablari hamda bolalar sporti ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya ishlari uchun 26,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,8 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 60,9 foizini tashkil qildi va 3 ta musiqa maktabi, 6 ta bolalar sporti ob'ektlari yangidan ishga tushirilib, 2426 o'quvchi o'ringa ega bo'lgan 11-ta umumta'lim maktablari rekonstruksiya qilingan. Bundan tashkari 8,9 mlrd. sum mablag' hisobidan 14 ta umumta'lim maktablari va 1 ta bolalar sporti ob'ektlari kapital ta'mirdan chiqarildi.

Oliy ta'lim muassasalarini, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarini qurish, rekonstruksiya qilish ishlarida davlat byudjeti, oliy ta'lim muassasalarini moddiy texnika bazasini shakillantirish, ta'lim va sog'likni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va

jixozlash fondlari va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan 17,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2,5 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 41,1 foizini tashkil qildi va Qoraqalpoq Davlat Universitetining 2320 o'quvchi o'rinlik 2 va 5-o'quv bloki, 400 o'rinlik 3-talabalar yotoqxonasi, Amudaryo tumanidagi 60 o'quvchi o'rinlik xizmat ko'rsatish kasb-xunar kolledji, Nukus shahrida 30 o'quvchi o'rinlik ixtisodiyot va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolledjlarida, Qonlikul tumanidagi 130 o'rinlik pedagogika kasb-xunar kolledji yotoqxonalarida rekonstruksiya ishlari tugatildi va Nukus shahrida 330 ta o'quvchi o'rinlik va 100 o'rinlik yotoqxonaga muljallangan yangi tasviriy sanaat litsey internat ishga tushirildi. Bundan tashqari 7,1 mlrd sum mablag' hisobiga Qoraqalpoq Davlat Universitetining sport saroyi, 6 ta kasb-xunar kolledji, 1 ta akademik litseylarda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash ob'ektlarini rekonstruksiya qilish ishlari uchun ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash jamg'armasi mablag'i hisobidan 23,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3,4 foizini va sog'liqni saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 59,1 foizini tashkil qildi. Buning hisobiga 1000 o'rinlik va smenasiga 500 qatnov quvvatiga ega bo'lgan 9 ta sog'liqni saqlash ob'ektlari ishga tushirildi.

Kommunal qurilish sohasida 177,0 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 49,3 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi, bu 2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan mos ravishda 85,3 foizni va 98,0 foizni tashkil qildi. Foydalanishga topshirilgan ichimlik suvi tarmoqlarining 40,7 foizi va gaz tarmoqlarining 31,9 foizi qishloq joylariga to'g'ri keldi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 10,4 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobiga 1,0 mlrd. so'm, davlat byudjeti hisobidan 8,3 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa aholi mablag'lari hisobiga 0,8 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.


Qurilish faoliyati. 2014 yil yanvar-dekabrida 917,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 82,5 foizi yangi qurilish, korxonalarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, 10,9 foizi kapital, 6,6 foizi joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 807,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, qurilish ishlarining umumiy hajmida 88,0 foizni (2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan 0,6 foizga kupaygan) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



Transport

Yuk tashish. 2014 yil yanvar-dekabrd barcha transport turlari tomonidan 35,6 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 foizga ko'p.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 794,3 mln.tn-km.ni tashkil qildi va 4,0 foizga ko'paydi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha qo'yidagicha ifodalanadi:

Tashilgan yuk, mln. tn.	35,6	102,4
-------------------------	------	-------

shu jumladan:		
avtomobil transportida	35,6	102,4
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	794,3	104,0
shu jumladan:		
avtomobil transportida	794,3	104,0

Xususiy yuk tashuvchilar avtomobil transportining yuk aylanmasi 2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 7,8 foizga ko'paydi va 648,0 mln. tn-km. ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 81,6 foizni tashkil etdi (2013 yil yanvar-dekabrda 78,7 foiz).

Yo'lovchi tashish. 2014 yil yanvar-dekabrda barcha transport turlari tomonidan 214,8 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 foizga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 8,7 foizga ko'payib, 2308,2 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi:

Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	214,8	104,4
avtomobil transportida	214,8	104,4
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	2308,2	108,7
avtomobil transportida	2308,2	108,7

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 7,8 foizga ko'paydi va 2155,5 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 93,4 foizni tashkil etdi (2013 yil yanvar-dekabrda 94,1 foiz).

Tovarlar va xizmatlar bozori

2014 yil yanvar-dekabrda chakana tovar aylanmasi 1913,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,1 foizga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi quyidagicha ifodalanadi:

Jami	1913,4	114,1	100,0
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:			
davlat mulki	1,0	103,4	0,1
nodavlat mulki	1912,4	114,1	99,9
undan fuqarolarning xususiy mulki	394,1	105,9	20,6

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2014 yil yanvar-dekabrda 854,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 foizga oshgan.

Dehqon bozorlari tomonidan hisobot davrida qishloq xo'jalik tovarlari va qoramol sotish hajmi 20,8 foizga oshdi va 863,3 mlrd. so'mga yetdi, uning umumiy tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 45,1 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorning tovar aylanmasi 195,4 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 16,0 foizga oshdi. Tovar aylanmasining umumiy hajmida uning ulushi 10,2 foizni tashkil qildi.

Joriy yil yanvar-dekabrda chakana savdo aylanmasi tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

Chakana tovar aylanmasi	1913,4	114,1	100,0
shu jumladan:			
savdo korxonalari	854,7	107,8	44,7
bozorlar	863,3	120,8	45,1
uyushmagan sektor	195,4	116,0	10,2

Oziq-ovqat mollari sotish hajmi 105,5 foizni, nooziq-ovqat mollari sotish hajmi esa 125,3 foizni tashkil qildi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida oziq-ovqat mollari ulushi 2014 yil yanvar-dekabrda 52,2 foizni, nooziq-ovqat mollari ulushi 47,8 foizni (2013 yil yanvar-dekabrda mos ravishda 56,5 va 43,5 foiz) tashkil qildi.

Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 38,2 mlrd. so'mga yetdi yoki 2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 100,8 foizga o'sdi.

2014 yilning 1 oktyabr holatiga chakana savdodagi tovar zahiralari 11,8 mlrd. so'mni yoki 33 savdo kunini tashkil qildi.

Aholiga ko'rsatilgan **pulli xizmatlar hajmi** 880,9 mlrd. so'mni, uning real o'sishi esa 2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan 112,5 foizni tashkil qildi.

Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatishning asosiy qismi rasmiy sektor tomonidan amalga oshirilib (67,9 foiz), bu sektorda xizmatlar hajmi amaldagi narxlarda 598,3 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 109,5 foizni tashkil qildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 119,5 foizga o'sib, 282,6 mlrd. so'mni, pulli xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi esa 32,1 foizni tashkil etdi.

Aholiga ko'rsatilgan umumiy pulli xizmatlar hajmida nodavlat sektori ulushi 86,3 foizni tashkil qildi (2013 yil yanvar-dekabr 86,3 foizni tashkil etgan).

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha aholiga ko'rsatgan xizmatlar hajmi quyidagicha ifodalanadi:

Jami	880,9	100,0	112,5
davlat mulki	121,0	13,7	115,2
nodavlat mulki	759,9	86,3	114,5
shundan:			
fuqarolarning xususiy mulki	65,9	8,7	132,8

Pulli xizmatlar umumiy hajmida maishiy xizmatlar 14,6 foizni yoki 128,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ularning real hajmi 2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan 117,3 foizga oshdi. Maishiy xizmatlarning 90,5 foizi xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilib, ushbu sektorning xizmatlar hajmi dastlabki baholanganda 116,2 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 118,1 foizni tashkil qildi.

Maishiy xizmatlar hajmining barcha hududlarda o'sganligi kuzatildi. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Turtkul (117,7 foiz), Nukus shahri (120,9 foiz) va Amudaryo (117,2 foiz) tumanlarida 2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan yuqori darajada bo'ldi.

2013 yil yanvar-dekabrga **iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar**

hajmi 2627,8 mlrd. so'mni, shu jumladan qishloq joylarida 903,5 mlrd. so'mni yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 34,4 foizini tashkil qildi. 2013 yil yanvar-dekabrga nisbatan real o'sish 121,4 foizga to'g'ri keldi.

2014 yil yanvar-dekabrda xizmatlar ishlab chiqarish turlari bo'yicha (amaldagi narxlarda) quyidagicha ifodalanadi:

Xizmatlar-jami	2627,8	121,4	100,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	193,0	129,6	7,3
Kompyuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar	1,3	111,7	0,1
Moliyaviy xizmatlar	161,0	140,5	6,1
Transport xizmatlari	612,8	119,8	23,3
Qurilish xizmatlari	244,9	124,0	9,3
Texnologik qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6	105,4	0,1
Qishloq xo'jaligi texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,6	90,1	0,1
Sayyohlik xizmatlari (mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda)	2,5	110,1	0,1
Savdo va umumovqatlanish xizmatlari	579,5	124,9	22,1
Maishiy xizmatlar	138,9	121,9	5,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	94,3	110,8	3,6
Sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar	17,3	113,9	0,7
Qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar	21,2	103,7	0,8
Boshqa bozor xizmatlari	554,9	113,3	21,1

Xizmat ko'rsatishda eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 23,2 foizi), savdo va umumovqatlanish (22,1 foizi), moliyaviy (6,1 foizi) va boshqa xizmatlar (21,1 foiz) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, sayyohlik xizmatlari (mehmonxona xizmatlarini qo'shgan holda) (0,1 foiz), sog'liqni saqlash (0,7 foiz), qurilish xizmatlari (9,3 foiz), moliyaviy (6,1 foiz), kompyuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar (0,1 foiz) qishloq xo'jalik texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish (0,1 foiz), qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar (0,8 foiz), maishiy (5,3 foiz) xizmatlarida o'sish yuqori bo'ldi.

Demografiya va mehnat bozori

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikada doimiy aholi soni 1763,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 26,7 ming kishiga yoki 101,6 foizga ko'paydi.

Aholining tabiiy o'lishi 32744 kishini tashkil etdi.

2014 yil yanvar-dekabrda migratsiya saldosi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, minus 5988 kishini tashkil qildi.

Aholining tabiiy harakati 2014 yil yanvar-dekabrda quyidagicha ifodalanadi:

Tug'ilganlar	39100	40905	1805	22,7	23,4
O'lganlar	8134	8161	27	4,7	4,7
Tabiiy o'sish	30966	32744	1778	18,0	18,7
Nikohlar	16525	15035	-1490	9,6	8,6
Ajralishlar	982	1213	231	0,6	0,7

2014 yil yanvar-dekabrda tug'ilganlar soni 40905 kishini tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1805 kishi yoki 104,6 foizga ko'paydi, tug'ilish koeffitsienti 22,7 promilledan 23,4 promelliga kupaydi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Amudaryo (21,9 dan 25,6 promelliga) tumanida, Beruniy (24,6 dan 26,5 promelliga), Qung'iro't (22,9 dan 23,7 promelliga), Qorauzak (21,0 dan 23,1 promelliga), Kanlikul (22,8 dan 24,2 promelliga), Nukus shahrida (20,9 dan 21,6 promelliga) kuzatildi.

2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan o'lganlar soni 27 kishiga yoki 0,3 foizga ko'paydi. O'lganlar sonining kamayishi Nukus (5,2 dan 4,7 promelliga) tumanida, Amudaryo (4,9 dan 4,4 promelliga), Qanlikul (4,5 dan 4,2 promelliga), Ellikka'la (4,1 dan 3,6 promelliga), Beruniy (5,0 dan 4,8 promelliga) tumanlarida kuzatildi.

Eng ko'p o'lim hollari Muynok tumanida (5,5 promelli), eng kam o'lim holatlari Nukus tumanida kuzatildi (4,7 promelli).

2014 yil yanvar-dekabrda 15035 ta nikoh ro'yxatga olindi, ajralishlar soni esa 1213 tani tashkil qildi. Bu ming aholiga 8,6 nikoh va 0,7 ajralishlar to'g'ri kelmoqda (2013 yil yanvar-dekabrda mos ravishda 9,6 va 0,6).


Mehnat resurslarining soni, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra,

2013 yil yanvar-dekabrda nisbatan 1,5 foizga ko'payib, 1011,6 ming kishini yoki respublika doimiy aholisining 57,4 foizini tashkil qildi.

2014 yil yanvar-dekabrda bandlikka ko'maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab, 22900 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlar Nukus (3582 kishiga) shaharida, Beruniy (2418 kishiga), Xujayli (2414 kishiga), Qung'iro't (2195 kishiga), Ellikka'la (2007 kishiga) va Turtkul (1973 kishiga) tumanlarida ko'p.


Bandlikka ko'maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 22370 nafari (barcha murojaat etganlarning 97,7 foizi) ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Nukus (murojaat etganlarning 15,6 foizi) shahrida, Beruniy (10,7 foiz), Xujayli (10,8 foiz), Qung'iro't (9,4 foiz), Turtkul (8,5 foiz) va Ellikka'la (9,0 foiz) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:



Ko'rib chiqildi:



- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)